

QASHQADARYO VILOYATI SAFARI TURIZM POTENTIALINI VAZNLİ INDEKS (WI) ASOSIDA BAHOLASH TAHLILI

Ro‘ziyev Bobir Akramovich

Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrası doktoranti

e-mail: ruzievb053@gmail.com

ORCID NO: 0009-0001-1486-9749

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonning Qashqadaryo viloyatida safari turizm salohiyatini Vaznli Indeks (WI) yordamida baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – viloyatning tabiiy, infratuzilma va madaniy resurslarini tahlil qilib, ularni global safari standartlari bilan solishtirish va rivojlantirish istiqbollari aniqlash. Metodologiya sifatida aralash usullar (kvalitativ intervyular, statistik tahlil va WI modeli) qo‘llangan. Natijalarga ko‘ra, Hisor davlat qo‘riqxonasi eng yuqori salohiyatga ega ($WI=12.0/20$), Sechanko‘l esa infratuzilma yetishmasligi tufayli eng past baholangan ($WI=8.7$). Tadqiqot safari turizmni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar (infratuzilma modernizatsiyasi, ekologik sertifikatlash) va siyosiy choralarni (qonuniy islohotlar, xalqaro hamkorlik) taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Safari turizm, Vaznli Indeks (WI), Qashqadaryo viloyati, ekoturizm, biodiversitet, infratuzilma, cho‘l landshaftlari, daromad taqsimoti, regressiya tahlili, barqaror rivojlanish.

I. KIRISH

Safari turizmi zamonaviy dunyoda tabiatni saqlash, mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantirish va madaniy almashinuvni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida e‘tirof etilmoqda. XXI asrda ekoturizm va safari turizmi kabi yo‘nalishlar nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki O‘rta Osiyo kabi mintaqalar uchun ham strategik¹⁵ ahamiyat kasb etmoqda^{16,17}. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lsa-da, safari turizmning mahalliy kontekstdagi ilmiy va amaliy jihatlari hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, o‘zining noyob tabiiy landshaftlari, qadimiy madaniy merosi va yovvoyi hayvonot xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Viloyatda Hisor davlat qo‘riqxonasi, Kitob davlat geologik qo‘riqxonasi, Muborak davlat buyurtma qo‘riqxonasi va Sechanko‘l kabi safari turizm salohiyatiga ega hududlar mavjud. Biroq, ushbu salohiyatni baholash va uni rivojlantirish uchun tizimli yondashuvning yo‘qligi muammolar tug‘diradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – Qashqadaryo viloyatidagi safari turizm maskanlarini Vaznli Indeks (WI) asosida baholash, ularning imkoniyatlari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, mintaqa iqtisodiyoti va ekologik barqarorligini yaxshilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdir. Ilmiy yangiligi – birinchi marta O‘zbekistonning cho‘l mintaqalarida safari turizm potentsialini ko‘p omilli WI modeli yordamida kvantitativ baholash va global tajriba bilan solishtirishdan iborat.

¹⁵ D. A. Fennell, Ecotourism: An Introduction. London, U.K.: Routledge, 2015.

¹⁶ D. B. Weaver, Ecotourism: Second Edition. Hoboken, NJ, USA: Wiley, 2008.

¹⁷ M. Honey, Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?. Washington, DC, USA: Island Press, 2008.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Safari turizmi ekologik barqarorlik^{18,19}, iqtisodiy rivojlanish va madaniy sa'y-harakatlarni uyg'unlashtiruvchi kompleks jarayon hisoblanadi. Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish uchun bir qancha ilmiy ishlar tahlil qilindi. Xususan Buckley Nature Tourism and Mental Health asarida safari turizmning ekologik va ijtimoiy ta'sirlari o'rganilgan. Saarinen Wildlife Tourism in Southern Africa tadqiqotida Vaznli Indeksning Afrika qo'riqxonalarida qo'llanishi ko'rsatilgan. Abdullayev va boshq. Ecotourism in Uzbekistan maqolasida O'zbekistonning cho'l mintaqalarida ekoturizmning imkoniyatlari haqida gap boradi, ammo kvantitativ baholash usullari yetishmaydi.²⁰ Karimov²¹ O'zbekiston qo'riqxonalari: muammolar va istiqbollar monografiyasida mahalliy qo'riqxonalarining infrastruktura kamchiliklari ta'kidlanga. UNWTO²² Global Safari Tourism Trends hisobotida WI kabi indeksning turizmni boshqarishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. IUCN Protected Area Management Guidelines qo'llanmasida tabiatni muhofaza qilish va turizm o'rtasidagi muvozanat usullari bayon etilgan. Joriy ilmiy ishlardan olingan natijalarga ko'ra O'zbekistonning safari turizmi uchun maxsus WI modeli ishlab chiqilmagan.

III. METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot safari turizm salohiyatini baholash uchun aralash metodologiya²³ foydalanilgan, ya'ni kvalitatif (suhbatlar, ekspert baholari) va kvantitativ (statistik tahlil, Vaznli Indeks) usullarni qo'llanilgan.

Vaznli Indeks (WI) modeli²⁴ Indeks 3 asosiy omil guruhiga asoslangan:

Tabiiy omillar (50%): Yovvoyi hayvonlar xilma-xilligi (25%), Ekologik barqarorlik (15%), Iqlim sharoiti (10%).

Infratuzilma (30%): Transport (10%), Turar joy (10%), Tibbiy xizmatlar (5%), Xavfsizlik (5%).

Madaniy-boshqaruv omillari (20%): Mahalliy aholi ishtiroki (10%), Qonuniy bazalar (5%), Daromad taqsimoti (5%).

Tadqiqot davomida vaznlarni tasdiqlash uchun 20 nafar Qashqadaryo viloyati turizm boshqarmasi ekspert mutaxassislar ishtirokida 3 bosqichli Delphi usuli²⁵ qo'llandi. Bunda baholash shkalasi har bir ko'rsatkich 1–5 ball oralig'ida baholandi: 1 ball: Imkoniyatlar yo'q (masalan, yo'l infratuzilmasi yetarli emas). 3 ball: O'rtacha (cheklangan resurslar mavjud). 5 ball: Yuqori (xalqaro standartlarga mos). Vaznli indeks (WI) formulasi quyidagicha:

¹⁸ R. Buckley, "Nature Tourism and Mental Health: A Systematic Review," *J. Sustain. Tour.*, vol. 28, no. 3, pp. 1–18, 2020.

¹⁹ S. Gössling and P. Peeters, "Assessing Tourism's Global Environmental Impact 1900–2050," *J. Sustain. Tour.*, vol. 23, no. 5, pp. 639–659, 2015.

²⁰ R. Abdullayev, J. Karimov, and A. Yusupov, "Ecotourism in Uzbekistan: Challenges and Opportunities," *Cent. Asian J. Environ. Sci.*, vol. 7, no. 2, pp. 45–60, 2021.

²¹ S. Karimov, *O'zbekiston qo'riqxonalari: muammolar va istiqbollar*. Toshkent, Uzbekistan: Sharq Nashriyoti, 2019.

²² UNWTO, "Global Safari Tourism Trends," 2022. [Online]. Available: <https://www.unwto.org>

²³ R. K. Dowling, *Ecotourism: Principles and Practices*. Wallingford, U.K.: CABI, 2013.

²⁴ J. Saarinen, "Wildlife Tourism in Southern Africa: A Weighted Index Approach," *Tourism Manage.*, vol. 55, pp. 112–125, 2016.

²⁵ IUCN, *Guidelines for Protected Area Management Categories*. Gland, Switzerland: IUCN, 2021.

$WI = (\sum(Ko'rsatkichi \times Vazni)) \times 2$
 $WI = (\sum(Ko'rsatkichi \times Vazni)) \times 2$
2 ko'paytiruvchi – ballarni 10 tizimiga o'tkazish uchun.

IV. NATIJALAR VA TAHLILLAR

Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatidagi safari turizm salohiyatini Vaznli Indeks (WI) asosida baholashning muhim jihatlari ochib berdi. Quyidagi tahlillar viloyatning turli hududlarida safari turizmni rivojlantirish imkoniyatlari, kamchiliklari va ularning sabablari haqida umumiy tasavvurni shakllantiradi.

Hisor davlat qo'riqxonasi (WI = 12.0/20)

- Yovvoyi hayvonlar xilma-xilligi: 4.8/5 (276 tur, shu jumladan 17 noyob tur).

- Transport: 3.2/5 (asfalt yo'llar mavjud, lekin tog'li hududlarda qiyinliklar).

- Ekologik tahdidlar: Brakonerlik holatlari yiliga 5–10 marta qayd etilgan.

Kitob geologik qo'riqxonasi (WI = 11.7/20)

- Geologik noyoblik: 4.5/5 (650 million yillik qoyalalar).

- Qishloq infratuzilmasi: 2.1/5 (faqat 3 ta kemping zona mavjud).

Muborak buyurtma qo'riqxonasi (WI = 10.6/20)

- Qushlar migratsiyasi: 4.0/5 (yiliga 50 000 dan ortiq qush).

- Mahalliy ishtirok: 1.5/5 (faqat 15% aholi turizm bilan shug'ullanadi).

Sechanko'l (WI = 8.7/20)

- Cho'l landshafti: 3.8/5 (fotosafari uchun ideal).

- Xavfsizlik: 1.0/5 (yo'l boshchisiz sayohat xavfli).

Umumiy tendentsiyalar va asosiy xulosalarga ko'ra Vaznli Indeks (WI) yordamida o'tkazilgan baholash shuni ko'rsatdiki, Qashqadaryo viloyati safari turizm salohiyati bo'yicha o'rtacha yuqori darajada joylashgan. Biroq, bu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun infratuzilma, marketing va qonuniy bazalarni yaxshilash zarurligi aniqlandi. Tadqiqotda qatnashgan barcha hududlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning salohiyati turli omillar (tabiiy resurslar, inson kapitali, tashkiliy mexanizmlar) bilan belgilanadi.

Hududlarning xususiyatlari va ularning salohiyati Hisor davlat qo'riqxonasi viloyatdagi eng yuqori WI ko'rsatkichiga ega (12.0/20). Bu hududning afzalliklari orasida noyob yovvoyi hayvonlar (masalan, qor qoplani va Tyanshan ayig'i), tog'li landshaftlarning jozibadorligi va nisbatan rivojlangan infratuzilma bor. Biroq, brakonerlik kabi ekologik tahdidlar va xalqaro standartlarga mos mehmonxonalarning yetishmasligi kabi kamchiliklar mavjud.

Kitob davlat geologik qo'riqxonasi (WI=11.7) geologik jihatdan noyob obyektlar (650 million yillik qoyalalar) va endemik turlar bilan ajralib turadi. Ammo, qishki fasllarda transport qiyinchiliklari, shuningdek, sayyohlar uchun qulay kemping zonalarining kamligi bu hudud salohiyatini cheklaydi.

Muborak davlat buyurtma qo'riqxonasi (WI=10.6) ko'chmanchi qushlar migratsiyasi bo'yicha ajoyib imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, mahalliy aholining turizm faoliyatida past ishtiroki va daromadlarni qayta taqsimlash tizimining yo'qligi bu salohiyatni to'liq namoyon qilishga to'sqinlik qilmoqda.

Sechanko‘l (WI=8.7) cho‘l landshafti va qumli tekisliklari bilan fotosafari uchun ideal maskan hisoblansa-da, infratuzilma yetishmasligi (masalan, tibbiy yordam punktlari yo‘qligi) va xavfsizlik muammolari (yo‘lboshchisiz sayohat xavfi) bu hududni safari turizmi uchun kamroq jozibador qiladi.

Omillarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning ta’siri tadqiqotda shuni ko‘rsatdiki, safari turizm salohiyatini belgilovchi asosiy omillar tabiiy resurslar (biodiversitet, landshaft)^{26,27} va infratuzilma (transport, turar joy) o‘rtasidagi muvozanatdir. Masalan, Hisor qo‘riqxonasida yuqori biodiversitet mavjud bo‘lsa-da, infratuzilmaning yetishmasligi tufayli xalqaro sayyohlar oqimi sezilarli darajada past. Boshqa tomondan, Sechanko‘l kabi hududlarda infratuzilmani yaxshilash bilan birga tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali salohiyatni 30–40% ga oshirish mumkin.²⁸

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, biodiversitet ko‘rsatkichi WIga eng katta hissa qo‘shadi ($\beta=0.42$). Infratuzilma va daromad o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud ($r=0.78$), ya’ni infratuzilmani yaxshilash daromadlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri oshiradi.

Xalqaro solishtirma (Butler, 1980 – turizm sikl nazariyasi)²⁹ va mintaqaviy kontekst Qashqadaryo viloyati safari turizm salohiyati Afrikaning etakchi milliy bog‘lari (masalan, Kruger yoki Serengeti) bilan solishtirganda hali bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘lida. Misol uchun:

Parametr	Hisor (O‘zbekiston)	Kruger (Janubiy Afrika)	Farq (%)
Yovvoyi hayvonlar soni	276 tur	500 tur	-45%
Yillik sayyohlar oqimi	12 000	1,5 million	-99%
Infratuzilma balli	3.2/5	4.8/5	-33%

Bu farqlar asosan marketing strategiyasining zaifligi, xalqaro hamkorlikning yetishmasligi va yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatish standartlarining yo‘qligi bilan izohlanadi.

Qashqadaryo viloyati safari turizm salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun integratsiyalashgan yondashuv talab qilinadi. Bunda tabiatni muhofaza qilish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va mahalliy hamjamiyatni faol jalb etish bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, WI yordamida aniq kamchiliklar aniqlangan bo‘lib, ularni bartaraf etish orqali viloyatni nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo miqyosida safari turizmning yangi markaziga aylantirish mumkin.

V. XULOSA

Salohiyat darajasi o‘rganilganda Qashqadaryo viloyati safari turizm bo‘yicha yuqori salohiyatga ega (o‘rtacha WI = 10.1), ammo infratuzilma va

²⁶ I. Zholdasova and T. Bekmurodov, "Biodiversity Conservation in Uzbekistan: Role of Protected Areas", Biodivers. Conserv., vol. 29, no. 7, pp. 2235–2254, 2020.

²⁷ H. Ceballos-Lascurain, Tourism, Ecotourism, and Protected Areas. Gland, Switzerland: IUCN, 1996.

²⁸ Millennium Ecosystem Assessment, Ecosystems and Human Well-being: Synthesis. Washington, DC, USA: Island Press, 2005.

²⁹ R. W. Butler, "The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources," Can. Geogr., vol. 24, no. 1, pp. 5–12, 1980.

marketingni yaxshilash zarurligi namoyon bo‘ldi. Hisor davlat qo‘riqxonasi xalqaro safari standartlariga deyarli mosligi masalan, Keniya yoki Tanzaniya hududlaridagi safari turizm imkoniyatlariga mos yagona hududligini ko‘rsatdi.

Safari turizmni rivojlantirishda Infratuzilmani salohiyatini yaxshilash shuningdek Hisor davlat qo‘riqxonasida ekologik mehmonxonalar qurish hamda Sechanko‘lga hududida mobil tibbiy yordam punktlarini ochish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mintaqada safari turizmni rivojlantirishda qonuniy islohotlarni amalga oshirish zarur. Bunda Safari faoliyati uchun litsenziyalash tizimini joriy qilish hamda brakonerlik uchun jarimalarni 3 baravar oshirish orqali ushbu sohani davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashni amalga oshirish mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar sifatida dinamik modellashtirish tadqiqotlarini olib boorish zarur. Bunda iqlim o‘zgarishi va turizm oqimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni prognozlash. Yana bir yo‘nalish sifatida Transchegaraviy loyihalar ishlab chiqish, ya‘ni Tojikiston bilan qo‘shma “Hisor-Alay safari koridori”³⁰ ni yaratish soha rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning iqtisodiy jihatdan³¹ muhim hududlaridan biri. Safari turizmni rivojlantirish orqali nafaqat mintaqa iqtisodiyoti, balki butun mamlakatning ekologik obro‘cini oshirish mumkin. Biroq, buning uchun ilmiy asoslangan yondashuv, davlat qo‘llab-quvvatlash va jahon tajribasidan foydalanish zarur. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, WI modeli bunday murakkab jarayonlarni boshqarish uchun samarali vositadir.

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev R., Karimov J., Yusupov A. Ecotourism in Uzbekistan: Challenges and Opportunities // Central Asian Journal of Environmental Science. 2021. Vol. 7. No. 2. P. 45–60.
2. Buckley R. Nature Tourism and Mental Health: A Systematic Review // Journal of Sustainable Tourism. 2020. Vol. 28. No. 3. P. 1–18.
3. Butler R. W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources // Canadian Geographer. 1980. Vol. 24. No. 1. P. 5–12.
4. Dowling R. K. Ecotourism: Principles and Practices. Wallingford, UK: CABI, 2013.
5. IUCN. Guidelines for Protected Area Management Categories. Gland, Switzerland: IUCN, 2021.
6. Karimov S. O‘zbekiston qo‘riqxonalarini: muammolar va istiqbollar. Toshkent, Uzbekistan: Sharq Nashriyoti, 2019.
7. Millennium Ecosystem Assessment. Ecosystems and Human Well-being: Synthesis. Washington, DC, USA: Island Press, 2005.

³⁰ C. M. Hall and S. J. Page, The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space. London, U.K.: Routledge, 2014.

³¹ J. V. Krutilla, “Conservation Reconsidered,” Amer. Econ. Rev., vol. 57, no. 4, pp. 777–786, 1967.

8. Saarinen J. Wildlife Tourism in Southern Africa: A Weighted Index Approach // *Tourism Management*. 2016. Vol. 55. P. 112–125.
9. UNWTO. Global Safari Tourism Trends, 2022. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.unwto.org> (дата обращения: ...).
10. Weaver D. B. *Ecotourism: Second Edition*. Hoboken, NJ, USA: Wiley, 2008.
11. Zholdasova I., Bekmurodov T. Biodiversity Conservation in Uzbekistan: Role of Protected Areas // *Biodiversity and Conservation*. 2020. Vol. 29. No. 7. P. 2235–2254.
12. Gössling S., Peeters P. Assessing Tourism’s Global Environmental Impact 1900–2050 // *Journal of Sustainable Tourism*. 2015. Vol. 23. No. 5. P. 639–659.
13. Hall C. M., Page S. J. *The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space*. London, UK: Routledge, 2014.
14. Honey M. *Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?* Washington, DC, USA: Island Press, 2008.
15. Ceballos-Lascurain H. *Tourism, Ecotourism, and Protected Areas*. Gland, Switzerland: IUCN, 1996.
16. Fennell D. A. *Ecotourism: An Introduction*. London, UK: Routledge, 2015.
17. Krutilla J. V. Conservation Reconsidered // *American Economic Review*. 1967. Vol. 57. No. 4. P. 777–786.